

RESPUBLIKAMIZDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MAVJUD BO'LGAN RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH

Jumanazarova Zilola Shokir qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7013708>

Annotatsiya. Turizm bugungi kunda respublikamizda eng tez rivojlanayotgan Iqtisodiyot sohasi hisoblanadi. Ushbu maqolada respublikamizda ichki turizmni rivojlantirishda mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy soha, turizm, turoperator, turbazalar, xususiy sektor, madaniy meros obyektlari.

РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИМЕЮЩИХСЯ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ

Аннотация. На сегодняшний день туризм является наиболее динамично развивающейся отраслью экономики нашей республики. В данной статье представлена информация о методах рационального использования имеющихся ресурсов в развитии внутреннего туризма в нашей республике.

Ключевые слова: социальная сфера, туризм, тuroperator, общественный транспорт, частный сектор, объекты культурного наследия.

RATIONAL USE OF AVAILABLE RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN OUR REPUBLIC

Abstract. To date, tourism is the most dynamically developing sector of the economy of our republic. This article provides information on the methods of rational use of available resources in the development of domestic tourism in our republic.

Keywords: social sphere, tourism, tour operator, public transport, private sector, cultural heritage sites.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti ko'p tarmoqli bo'lib turli xil tarmoqlarni o'zida birlashtiradi. Ularning har birini o'z vazifasi maqsadi bor. Shular ichidagi bugungi kunda respublikamizda eng rivojlanib borayotgan mo'may daromad keltiradigan soha turizm sohasi hisoblanadi. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Respublikamiz hududida ko'plab turizm sohasini rivojlantirish uchun kerak bo'ladigan resurslar anchagina yaxshi ta'minlangan desak adashmaymiz. O'zbekiston respublikasi o'zining tabiiy jihatdan ham madaniy jihatdan ham o'zining boy tarixi va merosiga ega. Bularning barchasi yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi. Turizm sohasi bugungi kunda asosan ichki turizm jihatdan taraqqiy etib bormoqda. Bunda eng ko'p turistlarni qabul qilayotgan hududlar sifatida, Samarqand viloyati, Xorazm viloyati, Buxoro viloyati eng

peshqadam hisoblanadi. Ichki turizmni rivojlantirish uchun soʻngi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan maxsus farmon va qarorlari chiqarildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmoni ijrosini taʼminlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida: bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan.

Masalan, “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qil!” Dasturi doirasida hududlarda turistlar oqimi past boʻlgan davrda amalga oshiriladigan sayohatlarga turistik infratuzilmani tayyorlash boʻyicha kompleks choralarni oʻrganish va qabul qilish, jumladan: joylashtirish vositalari, jamoat ovqatlanish punktlari, sanitariya-gigiyena uzellari, transport vositalari, madaniy meros obyektlari va boshqa diqqatga sazovor joylarni inventarizatsiya qilish va xizmat koʻrsatishga tayyorlash;

Yoʻl-maʼlumot koʻrsatkichlarini va boshqa turistik navigatsiya koʻrsatkichlarini oʻrnatish/yangilash;

turistik infratuzilma obyektlarida turli madaniy-koʻngilochar tadbirlarni, shuningdek diskont dasturlarni oʻtkazish.

TADQIQOT NATIJALARI

Oʻrganishlar natijalarini Oʻzbekiston Respublikasi davlat turizmni rivojlantirish qoʻmitasi va sayohatlar jadvalini shakllantirishda hisobga olish uchun sayohat muvofiqlashtiruvchilariga joʻnatish.

Ekskursiya paytida foydalanish uchun zarur boʻlgan borib koʻrishga tavsiya etiladigan obyektlar va hududlar roʻyxati, shu jumladan Oʻzbekistonning tarixiy va zamonaviy diqqatga sazovor joylarining roʻyxatini, axborot-targʻibot materiallarini tayyorlash va sayohatlar muvofiqlashtiruvchilariga joʻnatish. Taʼtil davrida Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qoʻqon, Margʻilon va Toshkent shaharlarida oʻquvchilar uchun ularning tarix, madaniyat va oʻzbek xalqining anaʼnalari toʻgʻrisida bilimlarini oshirishga yoʻnaltirilgan turli konsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar va boshqa tadbirlar oʻtkazilishini nazarda tutuvchi madaniy-bilishga oid “Shahar haftaligi” festivallari oʻtkazilishini taʼminlash.

Oʻzbekiston boʻylab sayohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish Dasturida ishtirok etishga ishchilarni, mahalla faollarini, ayollar jamoasini, mehnat faxriylari va oʻquvchilarni, shu jumladan asosan chekka hududlardagi aholi punktlari oʻquvchilariga alohida eʼtibor qaratgan holda yosh turistlar va oʻlkashunoslik toʻgaraklari aʼzolarini jalb qilish maqsadida keng targʻibotni oʻtkazish.

Ona oʻlka tarixi, arxeologik va madaniy merosni chuqurlashtirilgan holda oʻrganish, mamlakatning tabiiy boyliklari bilan tanishish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi bilimlar asosini egallashga yoʻnaltirilgan umumtaʼlim maktablari va “Barkamol avlod” bolalar markazlarining oʻlkashunoslik va ekologiya toʻgaraklari faoliyatini kuchaytirish boʻyicha kompleks choralar Rejasini tasdiqlash. Koʻrsatib oʻtilgan toʻgaraklar ishtirokchilari ichidan yosh mutaxassislarini tayyorlash, mutaxassislar tomonidan turizm sohasida keyinchalik ularning malakasini oshirish bilan ekskursiyalar va turlar tashkil etilishini taʼminlash. Yuqorida sanab oʻtilgan rejalarni amalga tatbiq etish orqali anchagina yaxshi natijalarga erishsa boʻladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasida mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun kerak bo‘ladigan barcha resurslar bilan ta‘minlanganligi, madaniy meros obyektlarining mavjudligi hamda qulay tabiiy sharoiti va geografik joylashuvi tufayli turizmni rivojlantirish mumkin. Ayniqsa yurtimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun ham barcha narsalar yetarlicha. Faqatgina nima kerak ? Bu savolga javob sifatida bizda bor narsalarni avvalo yurtimiz ahosiga ko‘rsatish tarixni o‘rganish, madaniy xordiq chiqarish, keyinchalik esa yurtimizdan tashqarida butun dunyo miqyosida turizmni rivojlantirish xorijiy sayyohlarni yurtimizga jalb qilish ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kerak bo‘ladi. Bularning barchasi birdan bo‘lmaydi albatta asta sekin bo‘ladi. Shunday ekan turizmni rivojlantirish uchun eng avvalo yurtimizda ichki turizmni rivojlantirish maqsadga muvofiq desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. Shovdirov T. N. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI MUAMMO VA ISTIQBOLLAR //Builders of the future. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 104-111.
2. <https://lex.uz/docs/-3551112> ICHKI TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHNI TA‘MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA.
3. Mirzayev M.A., Aliyeva MT Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011. Fayzieva SH. Razvitiya turizma v Uzbekistan asosiy yo‘nalishlari. // Ekonomicheskij vestnik Uzbekistan. № 3–4, 2004 yil.
4. Алиева, Г. И. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni / Г. И. Алиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 3-5. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44595/> (дата обращения: 13.08.2022).